




# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



3/2024  
Hayohin bechink Byxapkoror roqyapctbehoro yahnepecntera  
Scientific reports of Bukhara State University



MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Abdazova A.R.</b>	The features of the use of english environmental terms in the media	<b>3</b>
<b>Batirkhanova M.O.</b>	Somatik frazeologik birliliklar tahlili va ularning o'rganilish tarixi	<b>9</b>
<b>Sobirova D.R.</b>	Reklama matnlarining gender xususiyatlari (tibbiyotga oid reklamalar misolida)	<b>15</b>
<b>Sadullayeva G.I.</b>	Enhancing listening comprehension: strategies, challenges and a comprehensive methodology for language learners	<b>17</b>
<b>Asadov T.H., Bakirova N.H.</b>	Ayrim etnofrazemalarning lingvokulturologik tadqiqi (o'zbek, rus, turk tillari misolida)	<b>26</b>
<b>Eshquvvatova G.N., Urinbayeva D.B.</b>	Stylistic features of proverbs in internet texts	<b>31</b>
<b>Hojiyeva M.G'.</b>	Integrating language and content: strategies and challenges in content-based language instruction	<b>36</b>
<b>Khabibova M.N.</b>	Biografik asarlardagi epistolyar matnlarning o'mni va ularning pragmatik xususiyatlari	<b>41</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Building a comprehensive bilingual synchronous corpus: principles and practices	<b>45</b>
<b>Narzullayeva D.B.</b>	Qur'oni Karim leksik konfiguratsiyalari: Ka'ba toponimmi yoxud teonim?	<b>50</b>
<b>Sadikov E.T.</b>	Iltifot va inkor mazmunidagi nutq aktlarining tasviriy-ifodaviy atributlari	<b>55</b>
<b>Pardayev S.Sh.</b>	Globallahuv davrida madaniyatlararo muloqot tizimidagi madaniy o'ziga xoslik	<b>60</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Significance and development of linguistic corpora in Uzbekistan	<b>66</b>
<b>Safoyeva S.N.</b>	Pragmatic marker: "so" and its role in modern oral discourse	<b>70</b>
<b>Turg'unboyeva D.A.</b>	Comparative pragmatics: politeness strategies in uzbek and english languages	<b>75</b>
<b>Xolova M.B.</b>	Tushuncha madaniy kodning shakllangan birligi sifatida	<b>81</b>
<b>Xusenova M.O'.</b>	Termin va terminologiya xususida	<b>85</b>
<b>Ziyayeva D.A.</b>	Paradigmatic analysis of speech verbs	<b>89</b>
<b>Zokirova N.S.</b>	The concept of "linguistic picture of the world" in translation	<b>94</b>
<b>Давлатова М.Х.</b>	Встречение английских глаголов-предикатов в функционально-семантическом поле	<b>98</b>
<b>Махмудова Ю.А.</b>	Лингвокультурные особенности в контексте социолингвистического анализа произведения «Шайтанат»	<b>104</b>
<b>Gudzina V.A., Rustamova N.Sh.</b>	The phraseological specificity of V.Shukshin's idiom in fiction: an analysis of interconnections and functional features	<b>109</b>
<b>Subxonqulov U.T., Adizova F.M.</b>	So'zlarni lingvistik tahlil qilish jarayoni uchun ayrim algoritmlarining qiyosiy tahlili	<b>114</b>
<b>Heydarova N.A.</b>	"Past", "present" and "future" as temporal adjectives	<b>119</b>
<b>Norova M.F.</b>	Phraseological dialectisms in english literary works	<b>123</b>
<b>Zeynalova K.</b>	The use of some national-cultural realies in the english language, their etymology and ways of their borrowings	<b>128</b>
<b>Karimova R.</b>	Pragmatic and conceptual aspects of idioms in the discourse of the british and american press	<b>134</b>
<b>Yokubova Sh.Y.</b>	Fe'lli birikmalarning nutqiy vogelanishi	<b>138</b>
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Hayitov Sh.A., Qudratova K.H.</b>	So'z va soz schri	<b>142</b>

## LITERARY CRITICISM

UO'K 894.375.(092)

### SO'Z VA SOZ SEHRI

*Hayitov Shavkat Ahmadovich,*

*Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori,*

*filologiya fanlari doktori (DSc)*

*s.a.xayitov@buxdu.uz*

*shavkat61hayitov@gmail.com*

*ORCID 0000-0002-4290-6017*

*Qudratova Kamola Hikmatobna,*

*Buxoro davlat universiteti matnshunoslik va adabiy*

*manboshunoslik yo'nalishi I bosqich magistri*

*hikmatovnakamola@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiyning musiqa va musiqa ilmiga munosabati haqida mulohaza yuritilgan. G'oyaviy-badiiy tahlil uchun ulug' mutasakkirning «Majolisun-nafois», «Nasoyimul-muhabbat», «Xamsatul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardašer», «Mahbubul-qulub» asarlari asos qilib olingan. Qiyosiy tahlil talabiga ko'ra Sharq adabiyotining buyuk namoyandasini Unsurul-Maoliy Kaykovusning «Qobusnomasi» asariga murojaat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Maulono Alishoh, Kaykovus, Majolisun-nafois, Xamsatul-mutahayyirin, Nasoyimul-muhabbat, Mahbubul-qulub, Aslul-vasl, Qobusnomasi, soz, sozanda, mutrib, mug'anni, tanbur, ko'ngil, tajnis, saj, so'fiy, shayx, tazkira.

### ВОЛШЕБСТВО СЛОВА И МУЗЫКИ (МЕЛОДИИ СЛОВА)

**Аннотация.** В статье ведутся рассуждения о знании о музыке и музыкальном обучении Алишера Навои. За основу взяты его произведения как, «Мажолисун-нафоис» (Собрание избранных), «Насойимул-муҳаббат» (Веяния любви), «Ҳамсатул-мутаҳайирин» (Пятерица удивления), «Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер» (Состояние Сайида Хасана Ардашера), «Маҳбубул-қулуб» (Возлюбленный сердцу). Согласно жанрам сопоставительного анализа было обращено к одному из великих представителей Восточной литературы Унсурл-Маоли Кайковус и его произведению «Кобуснаме».

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Нуридин Абдураҳмон Жомий, Мавлоно Алишоҳ, Кайковус, Мажолисун - нафоис, Ҳамсатул - мутаҳайирин, Насойимул-муҳаббат, Маҳбубул-қулуб, Аслул-васл, Қобуснома, соз (настрой, музыка, муз. инструмент), созанда (певец, танцовщик и т.д.), мутриб (певец), муганий (певец- музыкант), танбур (струнный инструмент), кўнгил (душа), тажнис (равный по полу и ртизванию), са'ж (внутренняя рифма), суфий, шайх (шеих), тазкира (антология).

### MAGIC OF LYRIC AND LYRE

**Abstract.** The article discusses Alisher Navoi's attitude to music and musicology. For the ideological and artistic analysis, the works of the great thinker "Majolis un-nafais", "Nasayimul-muhabbat", "Khamsatul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardašer", "Mahbubul-qulub" were taken as a basis. According to the requirement of comparative analysis, the work "Kobusnama" by Unsurul - Maoliy Kaikovus, a great representative of Eastern literature, was referred to.

**Keywords:** Alisher Navoi, Nuriddin Abdurrahman Jami, Maulana Alishah, Kaikovus, Majolisun-nafais, Khamsatul-mutahayyirin, Nasoyimul-muhabbat, Mahbubul-qulub, Aslul-wasl, Qabusnama, soz(mood, music, musical instrument), sozanda(singer, dancer, etc.), mutrib(singer), mug'anni(singer-musician), tanbur(string instrument), heart, tajnis(equal in gender and title), saj(internal rhyme), sufi, shaykh (sheikh), tazkira(anthology).

**Kirish.** Hazrat Alisher Navoiy "Nasoyimul-muhabbat"da (1495-1496) "Bu toifaning a'molu af'ol va muomilotu riyoziotidin ba'zini zikr qilmoq" sarlavhasi ostida tasavvuf arboblariga, so'fiy shayxlargagina xos bo'lgan komillikning yetti sifati haqida ixcham va teran mulohaza yuritadilar. Va tariqat pirlari hayotidan maroqli lavhalar keltiradilar. Buyuk Navoiy talqinidagi avliyoullohlarning "a'molu af'oli"ga xos komillik sifatlaridan biri "hilm va burdborlig"dir. Alisher Navoiy komillikning valiylargacha xos mazkur axloqiy sifatiga

## LITERARY CRITICISM

"Nasoyimul-muhabbat min shamoyimul-futuvvat"da ("Mardlik iforini taratuvchi muhabbat nasimlari") quyidagicha ixcham ta'rif beradilar: "Yana hilm va burdborlig'durki, bu toifag'a har kimdin har shiddat yetishsa, alar lutfu madoro bila o'tkorurlar va muqobalada minnatdorlig' bila uzr qo'lalar" [5,19-20]. Buyuk mutafakkir "Nasoyimul-muhabbat"ning "Bu toifaning a'molu af ol va muomilotu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq" qismida qo'llagan nasriy uslubi talabiga ko'ra, yuqorida berilgan ta'rifi asoslash uchun hamida axloqi bilan o'z xalqi va millatini "ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal"ga ("Avesto") hidoyat qiluvchi avliyoulloh hayotidan hayratlanarli bir lavha keltirgan. "Nasoyimul-muhabbat"dan o'qiyimiz: "Ul jumladin azize erdi, bu toifaning mukammalidin va Hazrat Mavlono Muhammad Tabodgoniy q.s.ning kibor as'hobidin erdi va faqirning alar xizmatida ko'p irodatim bor edi. Va alar yaxshi un samoi'g'a mash'uf erdilar. Muq'anniyi bor erdi xush ovoz, ammo kichik yoshlig" va devonasoru sho'x erdi. Majlisda o'Ituraturg'och sekrib, ul azizning bo'ynig'a minib, ayog'indepsar erdi" [5,20]. Ulug' Navoiy nasriy uslubining bir muhim, nozik qirrasi "Nasoyimul-muhabbat"dan keltirilgan yuqoridagi iqtibosda o'z ifodasini topgan. Valiylarga xos "a'molu af ol va muomilotu riyozot"ning luqma hilliyati, saloti xamsa, zakot, shariat roiyati va tariqat odobi, saxoyi mufrid, sabr, azm riyozatlar haqida ta'rif va tavsif bera turib, shu xislat qaysi shayxning shaxsida yorqin namoyon bo'lishimi tahlil qilgan va o'sha tariqat pirining nomini o'z o'mida aniq zikr qilgan Alisher Navoiy uch komillik sifati isboti uchun keltirilgan tarixiy-adabiy lavhada hikoyat qahramoni ismi sharifini aytmag'an. Bular quyidagilar:

1.Hilm va burdborlig'; 2.Rizo; 3.Sidq.

**Asosiy qism.** Yuqorida tazkiradan keltirilgan iqtibosda zikr qilingan hilm gavhari-yu vazminlik ma'dani kim? Alisher Navoiy uni so'fiylar qavmining azizi ("azize"), mukammali tarzda tilga oladilar. Va Shayx Muhammad Tabodgoniying kamolga yetgan ("kibor as'hobi") muridlaridan ekanligini ta'kidlaydilar. Shayx Muhammad Tabodgoni kim? "Nasoyimul-muhabbat"dan ko'chirilgan iqtibosdagi o'quvchi e'tiborini o'ziga qattiq tortadigan uchinchi nuqta tazkira muallifining (Alisher Navoiy) "azize"ga munosabatidir. Ulug' mutafakkir bu xususda: "faqirning (Alisher Navoiy – Sh.H.K.Q.) alar ("azize") xizmatida ko'p irodatim (muridlik – Sh.H.K.Q.) bor erdi", – deb yozadilar. Hazrat Alisher Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" manoqibi yuqorida munozara yuritilgan jumboqlarni yechish kalitini beradi. Alisher Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da yozishlaricha, manoqib qahramoni Sulton Husayn Boyqaro saroyida maslahatchi (mustashor) lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Sayyid Hasanga qattiq ixlos qo'ygan, ko'ngliga "alarning mulozamatni" xush kelgan Husayn Boyqaro uni davlatning eng olyi mansabiga tayinlamoqchi bo'ladi: "Xuroson mulkinning kulliy ixtiyorin podshoh alarming soib rayiga va tadbiри mulk oroyig'a vobasta qilg'udek erdi" [4,96]. Sayyid Hasan shohning taklifini qabul qilmaydi va hatto davlat xizmatidan butunlay ozod qilinishimi so'rab Husayn Boyqaroga arz qiladi. Alisher Navoiy ulug' insonsoning saroydan ketish haqidagi qaroriga asosiy sabab qilib uning tabiatidagi zotiy faqr-u fanoga moyillikni, endilikda o'sha ruhiy tavajjuh, shavq qalbda tug'yon qilib, asl maqsad sari yetakloyotganini ko'rsatadilar. Sayyid Hasan Ardasherning saroy xizmatidan bo'shash haqidagi fikrini Husayn Boyqaro rad etadi. Shoh oldida ruxsat so'rab qilingan barcha urinishlar, yalinish, yolvorishlar behuda ketadi. Sulton o'z fikrida qat'iy turadi. Sayyid Hasanday halol insonni saroydan chetlashtirgisi, qo'lidan chiqargisi kelmaydi.

Sayyid Hasan saroy xizmatini tark etsa-da, shohning ko'ngli uchun yana ikki yil oddiy askar sifatida qo'shinda xizmat qiladi. O'z vujudini safar mashaqqatlari girdobiga tashlaydi. Shu ikki yil ichida maosh ham olmaydi, davlatning askar va amaldorlarga belgilab qo'yilgan boshqa imtiyozlardan ham mutlaqo foydalanmaydi. Darveshona raftor – ravish bilan xizmatni bajarishda davom etadi.

Tabiatan darveshvash bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro anglaydiki, darvesh ko'ngli giriftor bo'lgan bu darddan o'zi yoki boshqa birovning sa'y-harakati bilan qutula olmaydi. Uning ixtiyorori o'zida emas, Hokimi Mutlaqning qo'lidadir. Bu holni mushohada etmaslik esa darveshga jafo qilish, zulm o'tkazish bilan tengdir: "Chun podshoh ulcha imkonibor, iltimosda mubolag'a qildilar. Ko'rdilarki, alarming giroftorlig'i andoq yerda ermaksi, o'zluklari bila yo birovning sa'y va ehitimomi bila xalosliq mumkin bo'lg'ay. Ko'rdilarki, ortug'roq mubolag'a voqe' bo'lsa, zulm bo'lg'udekdur, raham qildilar va chorasiz ruxsat voqe' bo'ldi" [4,98]. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "navkarliq balosidin va sipohiyliq ibtilosidin" Alloh inoyati bilan xalos bo'lgan Sayyid Hasan Ardasher Mavlono Shamsuddin Muhammad Tabodgoniy rahnamoligida takmilga mashhg'ul bo'ladi. Darvesh Sayyid Hasan Ardasher "kibor as'hobi"dan bo'lgan Mavlono Muhammad Tabodgoniying silsilasi kimga borib ularishi, "tariqat koshifi" qaysi pirning muridi ekanligi haqidagi ma'lumot ham "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da bor: "Janobi haqiqatmaob, qutbi doirai haqiqat va murshidi ahli shariat va tariqat, koshifi ulumi rabboniy Mavlono Shamsuddin Muhammad Tabodgoniy ( qadda sallohu ruhohul-aziz) ki, hazrati shayxul-mashoyix olimil-murshidi tavoifil-umam shayx Zaynul-millati vad-din al-Xavofiy (rahimahumullohu taolo)ning ixtiyoriy xulofosidin erdilar" [4,98]. Nuriddin Abdurahmon Jomiyning

## LITERARY CRITICISM

“Nafohotul-uns min hazaratul quds” tazkirasida zikr qilinishicha, Shayx Zaynuddin Abubakral-Xavofiyning (vafoti 838/1434-1435) piri Shayx Nuriddin Abdurahmon Misriy bo’lgan.

Ko’rinadiki, “Holot Sayyid Hasan Ardasher”dagi ma’lumotlar asosida “azize” va uning piri kim ekanligi oydinlashadi. Alisher Navoiyning “alar xizmatida”, ya’ni Sayyid Hasan Ardasher (“azize”) suhbat va mulozamatida “ko’p irodatlari bor”ligi dalillar bilan isbotlanadi.

Alisher Navoiy talqinicha, inson tabiatidagi aqliy kamolot va axloqiy barkamollikning tayanch omillardan biri ilmga e’tibordir. Bunday insoniy kamolotning negizi yoshlikdan shakllanadi. Alisher Navoiy “Xamsa”sida Farhod, Qays, Iskandar, Moniy, Farrux, Juna kabi o’nlab obrazlar misolida ilm egallash shaxs kamolotining muhim sharti sifatida tasvirlangan.

“Holot Sayyid Hasan Ardasher”da ham mavzuning ayni qirrasi qaynoq mehr va qalb harorati bilan qalamga olingan. Alisher Navoiy Sayyid Hasan o’rgangan fanlarni birma-bir raqam qiladi: serif va nahv (grammatikaga oid ilmlar), lug’at va arabiyat, mantiq va kalom, fiqh va hadis, tafsir, she’r va muammo, ta’rix nujum va advor... [4,90]. “Advor” ilmiga “Navoiy asarlari lug’ati”da quyidagicha izoh berilgan: “Muzika ilmining bir sohasi; muzika nazariyasi, sharq muzikasining eski nota usuli” [6, 30].

“Nasoyimul-muhabbat”da Alisher Navoiy ustozi va do’sti, darvesh Sayyid Hasan Ardasher (“azize”)ning musiqaga munosabatini aniq tarixiy lavha asosida g’oyatda ta’sirchan aks ettirgan: “Va alar (Sayyid Hasan Ardasher – Sh.H., K.Q.) yaxshi un samoi’g’ a mash’uf erdilar” [4,20]. Alisher Navoiy talqinicha, hilm, muloyimlik, og’ir tabiatilik, bosiqlik, bezozlik xislatidir. Axloq – shaxsnинг qimmatbaho libosi, hilm esa insongi ko’rk, husn beruvchi shu bebaho kiyim navlarining ( ya’ni xulq turlarining ) nozik va nafis naqshlar solib ipakdan to’qilgan, shu bilan birga eng qattiq, eng mustahkam va eng chidamlı matosidir: “Axloq shaxsnинг og’ir debosi” [3, 83].

Alisher Navoiy “Nasoyimul-muhabbat”da ustozi va do’sti Sayyid Hasanni ana shunday noyob fazilat egasi sifatida talqin qiladi va darvesh hayotidan maroqli bir lavha keltirish bilan o’z fikrini isbotlaydi. Sayyid Hasan Ardasher ishtirokida o’tgan ma’rifiy majlislarda hofiz va xonandalar, mutrib va mug’anniylar ham ishtirok etgan. Bir xush ovoz, iste’dodli, hofiz bola bo’lib, u hali juda yosh, balog’atga yetmagan o’smir bo’lgan. Sho’x, hamisha o’yinga moyil bolalar odati bo’yicha yugurib kelib, yopishib olib murshidi komilning ustlariga chiqib olgan. O’ng va chap yelkalari ustidan oyoqlarini uzatib olib, tepib o’ynagan: “Mug’anniylar ham erdi xush ovoz, ammo kichik yoshlig’ va devonasoru sho’x erdi. Majlisda o’lturg’och sekrib, ul azizning bo’ynig’a minib ayog’indepsar erdi” [5,20]. Hofiz bola yelkalarida turib qancha sho’xlik ko’rsatsa ham Sayyid Hasan Ardasher bardosh berganlar. Agar shunday xush ovoz sohibiga tanbeh bersam, beg’ubor ko’ngli og’rimasini, degan andisha murshidi komilni to’xtatib turgan. Sho’xlik va devonasorlik haddan ortiq davom etavergach yumshoq til bilan aytar ekanlar: “Alar rifqu madoro bila aytur erdilar: Hordingiz erkin, tushsangiz ham Siz bilursiz” [5,20]. Qanchalik shirali ovoz sohibi bo’lmasin, hofiz bolaning el-yurtning eng hurmatli bir allomasiga qilayotgan bunday muomalasi xalq ko’ngliga og’ir botgan. Xalq vakillari uni tergab qo’ymoqchi bo’lganlar. “Tergovchilar”ga murshidi komilning javobi esa yanada hayratlanarli. “Nasoyimul-muhabbat”dan o’qiyimiz: “El malomat qildilar. Ersa, alar ( “azize”, ya’ni darvesh Sayyid Hasan Ardasher – Sh.H., K.Q.) man’ qildilarki , ul ( hofiz bola – Sh.H., K.Q.) ajab karami ehson qiladurki, aytmaydurki, qo’p (tur o’rnindan – Sh.H., K.Q.), toshqori bozorga ushbu dastur bila (yelkanga ko’tarib olib – Sh.H. K.Q.) mani elt? Agar desa erdi, eltnoqdin o’zga ne chora bor erdi?” [5,20].

Shirali ovoz sohibini hamda xush ovoz jo’rligida musiqa sadosini eshitishni xush qabul qilgan darvesh Sayyid Hasan Ardasher halim, muloyim, vazmin, sabr-u bardoshli nozik qalb egasi bo’lgan.

Kaykovus “Nasihatnomasi”ning o’ttiz oltinchi bobida, Alisher Navoiy “Mahbulul-qulub”ining yigirma ikkinchi faslidagi hofiz va sozandalar – mutrib va mug’anniylar to’g’risida fikr yuritiladi. Ulug’ fors-tojik adibi hofiz tabiatida qanday yaxshi fazilatlar mujassamlanishi lozimligi, sozandalik va hofizlik kasbinining tartib-qoidalari xususida pishiq yo’llanmalar beradi: “Ey farzand, agar hofiz bo’lsang, xushfe’l, quvnoq bo’l, hamisha pok, xushro’y va xush zabon bo’lg’il va o’z ishingga mashg’ul bo’lg’il, yaramas xulq, qo’pol bashara bo’lmag’il. Hamma vaqt og’ir yo’llarni chertmag’il, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart emasdir, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo’lg’on ermaslar, ta’blari ham bir-biriga muvofiq ermas, ya’ni xalq muxtalifdurlar” [1,125].

“Qobusnomasi”ning hunarmandlik, savdogarlik, dehqonchilik, munajjimlik kasblari odobiga bag’ishlangan sahifalaridagi kabi mazkur bobda ham axloqiy-ma’naviy muammolar birinchi navbatda tasvir asosida turgan ijtimoiy toifa – hofiz va sozandalar manfaatidan kelib chiqib hal qilingan: “Har majlisdaki bo’lsang, bodani va nabizni oz ichg’il, chunki sen tanga olishing lozim. Tangadin esa qancha bersalar, rozi bo’lg’il. Hargiz ummatlarga istiza qilmag’il va ishrat ahli mast bo’lg’on paytda sen o’z do’stlaring bila so’zlashmakka mashg’ul bo’lg’il, nedinkim, tanga bu ishdin hosil bo’lur. Agar majlisdaklar bir odam seni maqtasa,

## LITERARY CRITICISM

ta'rif qilsa, sen unga mehribonlik ko'rgazg'il va u qaysi surudni xohlasa shumi aytg'il, toki o'zgalar ham seni ta'rif qilsunlar, mast bo'lg'onlaridin so'ng ul ta'rifga loyiq tanga bersunlar" [1,127].

Alisher Navoisi bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'Imagan toifalarning ijtimoiy ahvoliga ko'ra axloqini ularning jamiyat vakkari ma'naviy hayotiga yetkazadigan foyda-zarari, ma'rifat xirmoniga qo'shgan hissasidan kelib chiqib yoritadi. "Mutrib va mug'anniyalar zikrida"gi faslda ham xuddi shu manzara kuzatiladi. Adib talqinicha, sozanda va xonanda, kuy va qo'shiq kishilarning ruhoniy-ma'rifiy hayotida muhim ahamiyatga ega: "Mutribi tarabafzo, mug'anniyi g'amzudo – ikalasiga dardu hol ahli jon qilurlar fido" [3,30]. Musiqa g'amni tarqatib, asablarga orom beradi. Yoqimli tarona inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qilib, qalbning holatida o'zgarish yasaydi. U ko'ngil mulkiga ezgu xayollar, go'zal tuyg'ularni olib kiradi. Haq oshiqlari qalbidagi muhabbat va ma'rifat o'tini yanada alangalatadi: "Xushxon mug'anniyidin dard ahlining o'ti tezdur, agar malohati bo'lsa, hol ahlig'a rustoxezdur. Har mug'anniyiki, dardmandomaroq nag'ma chekar, aning nag'masi zaxmliq yurakka korgarraq tegar. Otashin yuzluq mug'anniyiki, halqidin muloyim surud chiqorg'ay, hol ahlining kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay" [3,30].

Alisher Navoisi musiqanining ko'ngil holatlariiga ta'siriga asosiy e'tiborni qaratgan. Shuning uchun ham badiiy matnda "dardu hol ahli", "dard ahli", "zaxmliq yurak", "hol ahli", "kuygan bag'ir", "ko'ngil mulki", "suluk ahli", "muhiblik oh", "na'rai jonkoh" kabi so'z va so'z birikmalari, istiora va sifatlashlari ko'p takrorlangan. Chunki insonning ichki musaffoligi, ruh pokligi ko'ngil olami bilan bog'liq. Ko'ngil – ilohiy ma'rifat maskani. Ko'ngil – olyi insoniy xislatlar ma'vosi. Ko'ngil – inson umrining mazmuni.

Pokiza, beg'ubor qalb inson umriga harorat bag'ishlaydi, uning hayot yo'lini yoritadi, ezbiliklarga da'vat qiladi. Notob ko'ngil insonni manmanlik, xudbinlik illatiga duchor qiladi. Bu ofatlarga chalingan inson Haq amriga emas, shaytonning farmoyishiga bo'ysunadi. Shayton tuzog'idagi qalb bir parcha harom etga – nafs quliga aylanadi. Alisher Navoiyning quyidagi ohorli bayti aytilganlarga dalildir:

Ko'ngul alil esa forig' emas xavotirdin,  
Jarohat uzra yig' ilmoqdurur chibinga xos.

Nosog'lom yurak rohat va farog'atga – ichki hurlik va erkinlikka ega bo'lmaydi. Anglash, bilish, sevish baxtidan mahrum bo'ladi. "Qobusnoma"da kuzatilgan hofizning kishilarga munosabatida yuzaga chiqishi zarur bo'lgan insoniy va kasbiy odobiga xos fazilatlar "Mahbub ul-qulub"da kuy va qo'shiq ta'sirida insoniyat ruhiy olamida kechadigan (botiniy) holatlarning (psixologik) tahlilidani keltirib chiqarilgan.

Alisher Navoisi ruhiyat manzaralarini qalamga oлган "dard ahli" va "ishq ahli" Haq tajalliysi, jamoliga maftun, Husni mutlaqni ko'rish, Haq vasliga erishishga ko'ngli mushtoq komil insonlardir. "Hol ahli" deganda ruhi uyg'oq, ko'ngli ogoh, qalbi ma'rifat xazinasiga aylangan, "ishqdin vasi maqsudi hosil", Iloh asroridan xabardor bo'lgan barkamol inson nazarda tutilgan. "Hol ahlining kuygan bag'ridin dud chiqorg'ay" jumlesi tarkibidagi "kuygan bag'ir" – fano maqomiga yetgan orifning ezbiliklarga to'la nurli qalbi. Xayol daryosining irmoqlari doimo faylasuf adib fikrini tasavvuf o'zanlariga tortib turgan. Shuning uchun ulug' adib xoh shoir, xoh muallim, xoh savdogar, xoh mashshoq haqida yozsim, ma'rifat sharobiga qondirilgan insoni komilning nurli qiyofasi rangin jumlalarda zuhurlanadi va avlodlar ma'naviy balog'atiga qattiq ta'sir o'tkazadi.

Alisher Navoisi axloqiy-ta'limiy qarashlarining tayanch manbalaridan biri tasavvuf aqidalari talqiniga bag'ishlangan "Ihyou ulumiddin" (1099) va "Kimiyoziy saodat" asarlariki, ularda axloqiy masalalar alohida fan sifatida tadqiq etiladi.

Inson dunyoda eng mukarram zot, u aqli, tili, qalbi bilan Allohning boshqa yaratilmishlaridan tubdan farq qiladi, – kabi o'imas g'oyani asarlarida qayta-qayta talqin qilgan Alisher Navoisi "Mutrib va mug'anniyalar" zikriga bag'ishlangan faslda hofizning idrokiga kitobxon diqqatini qaratadi. Xonandaning qalbi sezgir, fahmlash qobiliyati baland, ijrosi yoqimli bo'lsa, u tosh yurakli odamning tabiatida ham o'zgarish yasay oladi: "Muloyim mutribki, ta'b va fahm onga yor bo'lg'ay, odamiy ko'ngli toshdan bo'lsa anga zor bo'lg'ay..." [3,35]. Ko'rinadiki, ulug' adibning ixcham jumlalarida muloyimlik va tosh ko'ngillilik nazarga yorqin tashlanib turadigan zid tushunchalardir. Lutf va nazokatli mutribni rahm-shafqatsiz kimsaga yuzlashtirishdan maqsad ezbilikni vasp qilishdir. Sohibdil hofiz ezgu ishi va husnu xulqi bilan toshbag'ir, zolim kishi qalbini ham yumshata oladi. Alisher Navoisi aymoqchiki, agar insonning yuragida ezbilik urug'lari batamom qurib bitmagan bo'lsa, unga najot yo'li ochiladi. «Ko'ngli tosh» iborasi oldidan uslubiy bahosi ijobiy bo'lgan "odamiy" so'zining keltirilishi, ot-kesim vazifasidagi saj'lanuvchi "yor" va "zor" kalimalarining chambarchas bog'liqligi va bu lisoniy vositalar orqali "tosh ko'ngil odamiy"ning go'zal axloqli, xushovoz hofizga o'zida muhtojlik ("zor") sezishining badiiy ifodalaniishi adibning axloqiy-ma'naviy masalaga g'azzoliyona munosabatini bildirib turadi.

Shakl va mazmun mutanosibligi, she'riy san'atlarni qo'llash mahorati, qo'shiq va kuyning qalb tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatiga oid falsafiy fikrlarning hayratlanarli tarzda bayon etilishiga asos bo'lgan: "Ko'ngul quvvati xushnavozdin, ruh quti xushnavozdin" [3,35]. Ko'chirilgan gapda saj' "xushnavozdin" va

## LITERARY CRITICISM

"xushovozdin" so'zlarasi asosiga qurilgan. Saralanib-saralanib jumlalar tarkibiga tizilgan so'zlardan bir harfni o'zgartirish musajja' talablarining – hamvaznlilik, ohangdorlik, kuchli ta'sirchanlik kabi fazilatlarining buzilishiga olib keladi. Ma'no va shakl jihatlari bilan o'zaro uyg'un bo'lган, olti so'zdan tashkil topgan ixcham jumlada ulug' adibning badiiy fikrash salohiyati ravshan ko'zga tashlanadi. Atoullo Husayniy yozadi: "Ani tajnis-i muxtalif va tajnis-i muharraf ham derlar. Ul lafzlarining harflari soni, turi va tartibida muvofiq bo'lub, harakoti sukonot, tashdidi taxfif, maddi kasrdin hosil bo'ladigan shaklda turlicha bo'lmog'idan iboratdur" [11,39-40]. "Mutrib va mug'anniyalar" zikridagi fasldan keltirilgan parchada "quvvati" hamda "quti" so'zlarining arab imlosidagi harflari soni, shakli, yozilish tartibi bir xil bo'lib, faqat "vov"ning "harakat-u tashdid"ini o'zgartirib o'qish bilan so'zning talaffuzida va bizning yozuvimizdagagi ifodasida farq paydo bo'ladi. "Quvvati" va "quti" kalimalarining ohangdoshligini inobatga olsak, shu so'zlar orqali bir yo'la ikki san'at – tajnisi muxtalif va saj'i mutarraf amal qilib, mukammal ma'no go'zal shaklda namoyon bo'lganligini his qilamiz. Saj'i jumlaning dastlabki qatorini yakunlovchi, musajja' asosida turgan yetakchi so'z "xushovozdin" (yoqimli ovozdan) ham o'z muvoziysi "xushnavozdin" (yoqimli ohangdan) kalimasi bilan lafzdosh bo'lib, bu so'zlarining talaffuzidagi ixtilof bir "nun" harfidadir. Badiiy tasvirming bunday namunasi tajnis-i muzayyal deyiladi [11,41]. "Xushnavozdin" matnda "yaxshi kuylovchi, durust cholg'uvchi" ma'nolariga ega (lutf san'ati): a) ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa yoqimli ovozdan oziq oladi; b) yurak yaxshi cholg'uvchidan mador va ruh uning shirali tovushidan ma'naviy farog'at tuyadi. Inson ruhiyatini teran his qilgan adib soz, cholg'uvchi, hofiz faoliyati insonning ma'naviy jihatdan o'sishiga, takomillashuviga xizmat qiladigan muhim vosita ekanligini mohirona ochgan. "Hozirgi pedagogikamizning tarbiya nazariyasida "ijobiy fazilatlarga tayanish prinsipi" tarbiyaneng eng muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. O'rta asr pandnomalarida esa butun e'tibor mana shu prinsipga qaratilgan" [8,63]. Alisher Navoiy kuy va qo'shiqning inson ruhiyat, erki, ichki olami, hissiyotlari parvoziga ta'sirini asoslar ekan, ruhiy va ma'naviy kamolot timsollari sifatida shayx Abubakr Shibliy va Abulhusayn Nuriy hayotini ibrat qilib ko'rsatadi: "Shibliy va Nuriy quddisa sirrihummo samo'da kettilar, bu yo'l suluki bila maqsud sarmanzil'a yettilar" [5,30]. Manbalarda Abubakr Shibliy va Abulhusayn Nuriy ibratlari hayoti va hikmatlaridan ko'plab namunalar keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning so'fiy shayxlar haqidagi tazkirası – "Nasoyimul-muhabbat"da Abubakr Shibliyning komil fiqhshunos, cheksiz kamolot sohibi, valiyulloh bo'lganligi xususida muhim dalillar mavjud: "Shayx Abubakr Shibliy q.s. din bir faqih so'rabdurki, zakot adosi ne nav'dur? Shayx debdurlarki, sanga farz bo'lur zakotnimu deyin? Yo manga farz bo'lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo'lur zakot qaysidur va sanga bo'lur zakot qaysidur? Shayx debdurlarki, sanga bo'lur zakot uldirkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo'lida bergaysen. Manga bo'lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo'lida bergaymen. Debdurlarkim, ikki yuz diramkim berildi, yana besh diram nedur? Shayx debdurlarki, ul besh diramni burj qilib, ul ikki yuz diram bergen shukronag'a berilg'ay..." Junayd q.s. debdurki, "Abubakr Shibliyga boshqalarga nazar qilganingizdek nazar qilmang. Chunki u Alloh ko'zlaridan bir ko'zdir" ...Va ham Junayd debdurki: "Har bir qavmning toji bor. Bu qavmning toji esa Shibliydir" [5:17,127].

Hofizlar zikriga bag'ishlangan faslning navbatdagagi jumlalarida musiqaning inson ruhiy olamiga ta'sirini yoritishda tashxis va intoq san'atlarining imkoniyatlardan mohirona foydalilanligan. Muallif nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo'buz, qonun, chag'ona kabi musiqa asboblariga inson xususiyatlari ko'chiradi. Adib go'yo inson ixtiyorini o'z tasarrufiga olish, uni o'ziga rom qilish maqsadi yo'lida birlashgan muhiblar kengashini tuzadi. Ittifoqdoshlar davrsi borgan sari kengayadi, jumladan jumlagaga ko'chadi. Shunisi hayratlanarlik, ixcham ifodalarda har bir soz o'z tashqi ko'rinishi, surat-shakli, siyrat-mohiyatiga mos navo, raftoru ravish bilan inson vujudida o'zgarish yasaydi: "Va tanbur parda dog'i fitnadin halok etar va ofiyat pardasin choc etar va chang zorlig' bila bo'g'zin tortar va ud lisoni nag'masining targ'ibi changidin ham ortar. Andakim rubob boshin yerga qo'yub niyoz ko'rguzg'ay va qo'buz qulqoq tutub ayshg'a targ'ib ohangin tuzg'ay..." [3,33]. Alisher Navoiy qalamining mo'jizakorlik qudrati hofiz qo'lidagi sozni (ish quroli) tirik inson kabi kitobxon ko'z o'ngida jilolantirgan.

Badiiy matnda har bir so'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va undan ko'zda tutilgan maqsad bor. Mazkur da'vo isboti uchun birgina kalimani olib qaraylik. Tanburga nisbat berilgan "dog'i" so'zi matnda ikki ma'noda, qo'shaloq vazifani ado qilib kelayotir. Birinchidan, "dog'i" tanbur dastasi bo'ylab joylashtirilgan tovush notalarining farqlovchi belgilari – alomatlari ma'nosini ifodalab, tasvir mukammalligi va tiniqligini ta'min etayapti. Bunda Alisher Navoiy "dog'i" so'zining "belgi, iz" kabi ma'nolaridan badiiy-g'oyaviy maqsad yo'lida ustalik bilan foydalangan. Shu o'rinda ulug' adib musiqa nazariyasining komil bilimdoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, "dog'i"ning "tag'in, yana ham" ma'nolari ishga solingan, natijada so'z va soz biri-biridan madad olib, ichki mazmunni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Odam tabiatining qirralari qanchalik teran bo'lsa, uning ma'naviy dunyosiga ta'sir qilish, insonni ruhiy-ma'naviy jihatdan yuksaltirish usullari ham shunchalik ko'p. Tasvir va talqin insoniyat olamidan tabiat,

## LITERARY CRITICISM

hayvonot va nabotot olamiga ko'chadi. Adib talqinicha, yoqimli tarona hayvonlar hayotida ham zarur narsa. O'rta asrlarda odamlarga eng ko'p nafi tegadigan hayvon tuya bo'lgan. Issiq iqlim sharoitida bir necha kun suv ichmay yurishga moslashgan bu sahro "kemasi" turmushning turli jabhasida odamlarning og'irini yengil qilgan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy kitobxon e'tiborini tuyaga tortadi va aytadiki, arab tuyasi sarbonning "Hudiy" deb nomlangan ashulasidan mutaassir bo'lib sahroda qadamini tezlashtiradi: "Arab tevasi "hudiy" lahni bila bodiya qat'ida tez bo'lur, bulut buxtisi ra'd sadosidin soiqaangiz" [3,31]. Jumlaning ikkinchi qismi go'zal istiora bilan boshlangan. Adib "bulut" so'zi oldidan "tuya" kalimasining forsiy sinonimini ("buxti") keltirgan. "Buxti" kalimasini badiiy ifoda oqimida "bulut" so'zi bilan tashbehiy munosabatga kirishib istiorani hosil qilgan. Osmonning u yer bu yerlarida to'p-to'p bulutlarning ba'zan yuk ortilgan qayiq shaklida, ba'zan nor tuya misol nazarga tashlamishini ko'z oldimizga keltirsak, ijodkorming borliqda mavjud o'xshash hodisalarni tanlash salohiyatiga tan bermay ilojimiz yo'q. Majoziy tasvirdan maqsad inson rizqining sababchisi, nabotot olami tomirlariga qon va jon baxsh etuvchi yomg'ir manbai bulutning namoyon bo'lishiga va unda chaqmoq chaqilib yog'indan xabar berishiga momaqaldoq sadosini (zalvorli ovozini) shoirona sabab qilib ko'rsatishdir.

Mutrib va mug'anniylar hunarini kerakligicha yuksak maqomda madh etgan Alisher Navoiy bu toifanining pulga hirs qo'yganlarini qattiq tanqid qiladi. Bazmda odamlardan zorlanib hamda bezbetlik bilan pul teradigan sozanda va xonanda san'atkor emas, aslida tilanchidir, pastkash va gadoydir. San'atkorda insof, diyonat, odob, hayo va vafo bo'lmasa, u tubanlik botqog'iga botadi: "Ammo bu toifaning soyiri ham agarchi taraboyin va mehnat zadadurlar va lekin filhaqiqat, laimsiyrat va gadodurlar. Aytquvchi va cholg'uvchi zorlig' va iynamak bila olg'uvchi... Chun bazmda tana'um oz bo'ldi, alar ishi istig'nou noz bo'ldi... Vafo alar tab'idin maslub, vafo ahli alar olida mardud va mankub. Mug'anniylar vafosiz, kung'ir hayosiz" [3,31].

**Xulosa.** Alisher Navoiy otarchilarining tabiatini ochishda hajviy usullardan foydalananadi. Adib mahorati bois "san'at gullari"ning harakatlari, qo'llaridagi asboblari hajviy vosita vazifasini bajaradi. Badiiy ifoda tanqidiy tus olib, aytguvchi va cholg'uvchining san'at olamiga teskari bo'lgan, beso'naqay surati o'quvchi ko'zi oldida gavdalanadi. Surat tasvirida siyratdagi befaahmlik, maishatbozlik, axloqsizlik, andishasizlik xususiyatlari namoyon bo'ladi: "Ne'mat degan nimaki tamom yo'q bo'ldi, alarning ko'ngli sendin tamom to'q bo'ldi. Agar yillar bahra olibdurlar ehsoningdin, oshnolig' bermay o'tarlar yoningdin... Harakatlari xorij tuzuksiz sozlaridek va kalimotlari hashvy mahalsiz nozlaridek" [3,31]. Harakatlari mo'tadil holatdan tashqari, qo'pol kishining surati so'nggi jumla tarkibidagi "xorij" so'zi vositasida ravshan namoyon bo'ladi. "Xorij" ruhan qashshoq xonandaning odob doirasiga zid bo'lgan sayoqlik xususiyatiga o'quvchi diqqatini tortadi. Saj'ning ikkinchi qatorida "hashvy" (ortiqcha, o'rinsiz aytilgan so'z) ma'no va shakl mukammalligi uchun qanday vazifani bajarsa, birinchi qatorda "xorij" shunday vazifani ado etadi. Matnda tuturiqsiz sozandaning beso'naqay harakatlari – nosoz asbobiga; me'yordan ortiq, behuda so'zlar – o'z qimmatini oshirish va ko'proq pul olish uchun qiladigan noo'rin nozlariga qiyos qilingan. Zahmatkash olima Suyima G'anieva o'rini ta'kid etganidek, "bu tanqidlar o'z zamonusi uchun ham, hozirgi kunlarimizdagi ayrim o'tkinchi san'atkorlar sha'niga ham taalluqlidir" [7,347]. Xullas, hofiz va qo'shiq, soz va sozanda shaxsning ruhiy-ma'naviy kamolotida muhim ahamiyatga ega. Ammo axloqi zaif, tushunchasi past san'atkor ichki ruhiy go'zalliklarga ega bo'Imaganligi uchun jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'sha olmaydi.

### ADABIYOTLAR:

1. *Kaykovus. Qobusnomma*. – Toshkent: Meros, 1992. – 175 b.
2. *Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami*. 20 jiddlik, 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997. – 284 b.
3. *Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami*. 20 jiddlik, 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 304 b.
4. *Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami*. 20 jiddlik, 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – 236 b.
5. *Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami*. 20 jiddlik, 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001. – 520 b.
6. *Navoiy asarlari lug'ati*. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972. - 782 b.
7. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Besh tomlik, 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. – 447 b.
8. *Habibullaev A. Navoiy pandnomasi*. – Toshkent: Fan, 1996. – 84 b.
9. *Hayitov Sh. Barkamol inson timsoli*. – Toshkent: Fan, 2003. – 94 b.
10. *Hayitov Sh. Javonmardlik haqiqati*. – Toshkent: Fan, 2005. – 174 b.
11. *Husayniy, Atoulloh. Badoyi'us-sanoyi'*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 400 b.
12. Amonova Z. Q., Nafetdinova Z. S. "Hayrat ul abror" dostonida ko" ngil talqini //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings I. – C. 129-133.